INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING AHAMIYATI

Jumaboyeva Muqaddas
Xorazm viloyati Shovot tumani 17-sonli maktabning informatika fani o'qituvchisi
Sobirova Xilola
Xorazm viloyati Shovot tumani 17-sonli maktabning informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, multimediali elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi.*

Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko`proq aniqlanmoqda. So`nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o`qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko`proq degan xulosaga kelmoqdalar Axborot jamiyatiga o`tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o`tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo`lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi.. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o`qitish platformalari ko`paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo`llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo`ladi. Bu tendensiyaga bo`lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Ko`pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo`lishini ko`rsatgan, ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o`quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo`ladi. Elektron ta'limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o`zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko`rishimiz mumkin. Vaqt o`tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo`llash asosida an'anaviy ta'limning hohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Ma'lumki, birgina shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi va ular-dan barcha sohalarda keng foydalanish ta'lim tizimi imkoniyatlari tubdan o'zgartirdi, shu bilan birga Internet tarmog'i ta'lim tizimiga yangi peda-gogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish

bo'yicha yanada katta imkoniyat-lar yaratmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimini takomillashtirish eng avvalo, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya tizimiga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib kompyuterli ta'limning shakllanishiga imkon beradi. Ta'lim tizimida ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuter larni deyarli barcha didaktik masalalarni, shu jumladan axborotni yig'ish, saqlash va uzatish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish, talabalar bilimini nazorat va tahlil qilish, mashqlarni bajarish, o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash kabi boshqa masalalarni hal etishda tatbiq etish mumkin.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'-lim tizimining quyidagi asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi:

ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirish daraja-sini oshirishni ta'minlash;

ta'lim tizimida o'quvchilarning qobiliyati, iqtidori, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni shakllantirish, fanlar bo'yicha bilim egallashni rivojlantirish, malak va ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

talabalar bilimini nazorat qilish uchun pedagogik va axborot texnolo- giyalaridan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalanish, ya'ni pedagogik jarayonning samaradorli-gini oshirish.

Pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim tizimining sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi :

ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalarining sifati;

axborot texnologiyalari vositalarining zamonaviy dasturiy vositalarining sifati.

Ta'lim muassasida ET muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg`ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimiga ETni joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishiga bog`liq. Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o`qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o`zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda talabalar o`qishini jadallashtirish ana shunday muhim vazifalar sirasiga kiradi. O`quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o`quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o`zgartirishlar kiritish kerak bo`ladi. AKTni ta'lim jarayonida qo`llash

asosan ikki xil ko`rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti, bu texnik jihozlar bo`lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta‘minotlar bilan ta‘minlanganligidir.

Pedagogik va axborot texnologiyalari vositalaridan ta’lim tizimida foydalanishning samaradorligi o’qituvchilarning o’quv jarayoniga shu texnologiyalarni qo’llashga oid bilim hamda malakalarining darajasi va tajribasiga ham bog’liq bo’ladi. Boshqacha aytganda, ta’lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e’tibor, eng avvalo, o’qituvchiga va o’quvchiga zarur bo’lgan sharoitni yaratish hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurlaridan samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24 aprel 2017 yil, Toshkent.

2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. O`qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2019 . – 145 b.

3. Bolotov V.A. O distantsionnom obrazovanii// Informatika i obrazovanie, №1, 2018 g.

4. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta`limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2017.

5. Hamidov Y.Y. Ta`lim samaradorligini oshirishda elektron ta`lim resurslarining o`rni // Молодой ученый. - 2019. -№ 21 (259). -b. 611-612.